



“KOINOT JAVOHIRI” ILMIY-FANTASTIK QISSASIDA IJODKOR MAHORATI

Mirsanova Moxira Xusniddin qizi,
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti o‘qituvchi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15207271>

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy o‘zbek bolalar adabiyotida fantastika janri taraqqiyotida Sa’dullo Quronovning tutgan o‘rni, yozuvchining “Galaktikada bir kun” va “Koinot javohiri” asarlarini bugungi kun o‘quvchisining bilim va fantaziyasini rivojlantirishdagi ahamiyati va ijodkorning tasvir mahorati haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Sarguzasht, fantastik, ilmiy, koinot, moviy tosh, fantaziya, galaktika.

Kirish. Taniqli bolalar yozuvchisi, Xalq ta’limi a’lochisi, “Tahsin – 2021” mukofoti sovrindori, fanatist Sa’dullo Quronovni o‘zbek kitobxonlari yaxshi tanib ulgurdi. Ijodkor o‘zining o‘zgacha uslub sohibi ekanligi bilan ajralib turadi.

Ijodkor haqida taniqli adabiyotshunos olim, professor Qozoqboy Yo‘ldoshev shunday deydi: “– Sa’dullo Quronovni eng yosh sinchilarimizdan, eng yosh fan doktorlarimizdan deb faxrlanib yurar edim. Vaqtdan o‘zib yashaydigan bu yigit nafaqat ilmiy salohiyati, balki badiiy salohiyati bilan ham meni hayratga soldi.” [6]

Asarlaridagi fantastik tasvir shakli, uning zamiriga singdirilgan ilmiy faktlarning o‘rni bilan qo‘llanilishi bilan ham alohida e’tiborga loyiq. Ijodkor avvalo fizika va astronomiya fanlari bilimdoni ham. Mazkur fanlarni yaxshi bilganligi sabab badiiy asarlarida ulardan unumli foydalangan. Ijodkor zamonaviy o‘zbek ilmiy-fantastikasini yangi bosqichga olib chiqdi.

Taniqli fanatistning “Galaktikada bir kun” va uning mantiqiy davomi hisoblangan “Koinot javohiri” (Galaktikada bir kun. 2-kitob) asarlarini alohida ta’kidlash lozim. 1-kitobda asar qahramoni Ahmad boshchiligidagi sarguzashtlar 2-kitobda ham davom etadi. Mazkur maqolamizda 2-kitob “Koinot javohiri” kitobidagi sarguzasht-fantastik tasvirlar, afsonaviy moviy tosh va ijodkor mahorati haqidagi mulohazalarimizni ma’lum qilmoqchimiz.

Asosiy qism.

Ijodiy faoliyatini “Jajji akademik” bolalar jurnalida boshlagan ijodkor yosh bo‘lishiga qaramay talaygina asarlarini kitobxonlarga taqdim etdi. Bugunga qadar fanatist yozuvchining “Galaktikada bir kun”, “Koinot javohiri”, “Mening galaktikam”, “Jajji huquqshunos”, “Jajji jamg‘arma”, “Jajji akademik haqida komiks,



“Sog‘lomjon” kabi bir qator asarlari nashr etildi. S.Quronovning “Koinot javohiri”(Galaktikada bir kun. 2-kitob) asari ilmiy-fantastik qissa bo‘lib, 2024-yil “Akademnashr” nashriyoti tomonidan chop etilgan. Ushbu asarda “Galaktikada bir kun” asaridagi voqealar davom etadi. “Galaktikada bir kun” asari yakunida bosh qahramon Ahmad do‘stlari o‘zga sayyoralik Margol, droid Mokilar bilan hamroh bo‘lib o‘zi ixtiro qilgan “Ko‘kkezar” nomli uchar kema bilan koinotga sayohat uyushtirib, “Salmir” sayyorasini halokatdan qutqargan edilar. Afsonaviy moviy toshni topib sayyoraning so‘nib borayotgan yadrosiga tashlashganidan so‘ng sayyorada hayot jonlangan edi. Maqsadiga yetib “Yer” ga qaytayotganida o‘zi bilan moviy toshlardan bir nechtasini olib kelgan edi.[3: 155]

“Koinot javohiri” asaridagi g‘aroyib sarguzasht voqealar o‘sha “moviy tosh” larni harakatga keltirib qo‘ygach boshlanadi. Asar syujeti fizika va astrofizikaning nisbiylik nazariyasi, umumiy maydon nazariyasi, atom fizikasi, gravitatsiya kabi ilmiy muammolar asosiga qurilgan bo‘lib, ijodkor bu ilmiy muammolarni badiiylik bilan uyg‘unlashtirgan holda tasvirlaydi.

Asar boshida Mayor Jekobsonning butun dunyoni yuzdan ortiq suniy yo‘ldosh orqali kuzatib turishi va kutilmaganda Markaziy Osiyoning Andijon viloyatida g‘aroyib hodisa sodir bo‘lganligi haqidagi ma’lumotni olishi bilan boshlanadi.

“Mayor Jekobson – yadro fizikasi bo‘yicha yetuk mutaxassis. Unga Pentagondagi eng maxfiy va jiddiy vazifalardan biri yuklatilgan. Mayor va uning jamoasi yuzdan ortiq sun‘iy yo‘ldosh orqali butun dunyoni 24 soat davomida kuzatib boradi. Bu sun‘iy yo‘ldoshlar 118 kilometr balandlikdan turib Yerdagi eng kichik harakatlarni, hatto chivinning qanot qoqishini ham tasvirga olishi mumkin. Albatta, mayorga chivinning qanday qanot qoqishi qiziq emas. Unga biriktirilgan sun‘iy yo‘ldoshlarning o‘ta sezgir kameralari asosan Rossiya, Xitoy, Hindiston, Pokiston va Eron kabi davlatlarning hududiga qaratilgan. Sababi, bu davlatlarning barida yadroviy qurol mavjud” [2: 3]

Kutilmaganda e’tibordan chetroqda bo‘lgan Markaziy Osiyo hududida sodir bo‘lgan, va ularni hayratga solgan, Atom bo‘mbasini sinovdan o‘tkazishiyapti deb gumon qilingan hodisa umuman boshqa narsa edi. Ahmad Andijonda turib “moviy tosh – koinot javohiri”ni ehtiyotsizlik sabab harakatga keltirib qo‘ygan edi.

“Moviy tosh – koinot javohiri” asarda shunday tasvirlanadi:

“Bu toshlar tabiatdagi hech bir toshga, umuman hech bir jismga o‘xshamas, kecha-yu kunduz o‘zidan moviy nur taratib turadi”[2: 9]



Ahmad koinot safariga borib qaytganiga ikki yil bo‘lganiga qaramasdan bu toshlarga teginishga qo‘rqardi. Yong‘oqdek keladigan ushbu toshda bitta yulduzchalik quvvat borligini bilardi. Ikki yildirki uni yashirib yurdi. Koinot safaridagi eng katta xato shu toshlarni o‘zim bilan olib kelganim bo‘ldi deb o‘ylar edi Ahmad.

Asar qahramoni Moviy toshning sirini ochib, fizikadagi eng jumboqli masala – umumiy maydon nazariyasini isbotlamoqchi bo‘ladi. Natijada, Ahmad Moviy toshni yaqindan o‘rganishga, uning kimyoviy, fizik xossalarini tekshirib ko‘rishga qaror qildi. Tekshirish uchun esa toshning mayda zarralari kerak edi. Mayda zarralarni maxsus egov yordamida ajratib olaman deb Moviy toshni harakatga keltirib yuboradi. Ahmad “...bu “kichik” tajribasi bilan nafaqat Yerning sun‘iy yo‘ldoshlarini cho‘chitib yuborganini, balki butun koinotni larzaga solganini hali o‘zi bilmas edi.”[2:15]

Bu voqealar sodir bo‘lgan vaqtda Somon yo‘li galaktikasiga hukumronlik qilish orzusida yashayotgan Xastiklar qiroli Magistik XXIII boshchiligidagi xastik xalqi juda qudratli kuchga aylangan edi. Bunga Obma boshchiligidagi gikslarning halokatidan keyin yo‘l ochilgan edi.

Moviy toshning radioaktiv nurlanishi natijasida “Salmir” va “Xastik” sayyorolari rahbarlari ham Yerga qarab harakatni boshlashdi. Hatto, AQSH rahbariyati ham “Qurama – 2038” operatsiyasini boshlashadi. Ammo Salmir sayyorasidan Morgolning evarasi Dumgom yetib kelib AQSH josuslari qo‘lidan Ahmadni va tut daraxti tagiga ko‘milgan moviy toshlarni olib koinotga uchishadi. Yer yuzidagi davlatlar ham harakatga tushib qolishgan edi. Ammo Margol Ahmadni qutqarishga ulgurdi. Qissamiz qahramoni shu tariqa g‘aroyib sarguzashtlarni yana boshlaydi.

Yuqoridagi tasvirlardan ham ma’lumki, ijodkor “Koinot javohiri” asarini ham sodda til bilan, bugungi fan-texnika rivojlanayotgan davr bolajonlarini qiziqitirmasdan qolmaydigan usulda tasvirlagan. Bu asarda ham “Galaktikada bir kun” birinchi kitobidagi kabi sarguzasht-fantastik voqealar bir kunda sodir bo‘ladi. Ya’ni asar qahramoni vaqt tuynugidan o‘tib, ortga qaytadi. Natijada, makon va zamon o‘zgarishi sodir bo‘ladi. Bu kabi tasvirlar jahon adabiyoti namunalarida ham uchraydi. Misol uchun, makon va zamon o‘zgarishlari mohirona tasvirlangan G.G. Uellsning “Vaqt mashinasi” asarini keltirishimiz mumkin.[4]



“Koinot javohiri” ilmiy-fantastik qissasini o‘qish chog‘ida bir-biridan qiziq voqea-hodisalarga, ajoyib ilmiy bilimlarga ega bo‘lasiz. Ushbu asarni, nafaqat bolalar, balki, kattalar ham maroq bilan o‘qiydi.

Xulosa.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, fanatist Sa‘dullo Quronov o‘zining yangicha uslubi, yangicha tasvir mahorati bilan kitobxonlar e’tirofiga sazovor bo‘lmoqda. Ijodkorning mahorati va “Koinot javohiri” asari xususida Najimova Dilnoza “Sharq yulduzi” gazetasi 2022-yil, 3-soniga bergan maqolasida shunday mulohazalarni keltiradi: “Yozuvchining mahorati shundaki, u voqealarni fizik qonuniyatlar asosida juda ishonarli tasvirlay oladi. Kitobni bemaolol fizika faniga qo‘shimcha adabiyot sifatida o‘qish mumkin. Aytish mumkinki, bu turdagi ilmiy-fantastik kitoblar hozirgi kun bolalari uchun juda kerak.” [1,5]

Ushbu fikrlar isbotini asarni o‘qigan kitobxon albatta topadi. Bolajonlar fantaziyasini kengaytirish va ilmiy bilimlarini oshirish uchun qimmatli asar hisoblanadi. Hatto fizika fani uchun darslik sifatida o‘qitish ham tavsiya etilmoqda. Ijodkorning fantastik uslubda yozilgan barcha asarlari zamonaviy o‘zbek bolalar adabiyoti xazinasini boyitishda qimmatli ma’nbalar hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Najimova D., Koinot javohiri ilmiy-fantastik qissasi haqida, Sharq yulduzi, T: 2022-yil, 3-son.
2. Quronov S., Galaktikada bir kun 2-kitob (Koinot javohiri), Akademnashr, T: 2024. – 216 b.
3. Quronov S., Galaktikada bir kun, Akademnashr, T: 2019. 160 b
4. Uells G.G. Vaqt mashinasi, “Ilm-Ziyo-Zakovat”. -AQSH: 2016. -136 b.
5. <https://quronov.uz/>